| | |
|---|---|
| **Onlayn mikroqarz berish haqida ommaviy oferta shartnomasi**<br><br>**Kreditning to'liq qiymati:**<br>***elektron ma'qullash varaqasiga asosan***<br><br>**1. Umumiy shartlar**<br>**1.1.** Mazkur shartnomaga ko'ra Bank karta (Bank tomonidan emissiya qilingan) egalari bo'lgan jismoniy shaxslarga, milliy valyutada bankning mobil ilovalari orqali kredit ajratish yuzasidan ommaviy ofertani taklif etadi.<br>**1.2.** Mazkur oferta shartnomasida aks etgan shartlar jismoniy shaxslar (keyingi o'rinlarda – Qarz oluvchi) tomonidan to'liq o'rganilishi shart. Mazkur ommaviy oferta shartlari Qarz oluvchi va Bank uchun Qarz oluvchi tomonidan akseptlanganidan keyin majburiy hisoblanadi.<br>**1.3.** Mazkur ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan o'z Bank karta rekvizitlaridan foydalangan holda kredit olish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlar bajarilganidan keyingina akseptlangan hisoblanadi.<br>**1.4.** Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash deb quyidagilar hisoblanadi:<br>- shartnoma shartlarini Qarz oluvchi tomonidan boricha va to'liqligicha qabul qilish;<br>- o'zaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida Bank mazkur oferta shartlariga tayanish huquqini beradi;<br>- ofertadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini beradi;<br>- mazkur oferta shartlari Qarz oluvchiga Bank mobil ilovasi orqali kredit ajratilgan vaqtdan boshlab amal qiladi.<br>Mazkur oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.<br><br>**2. Shartnoma predmeti**<br>**2.1.** Bank ushbu ofertani akseptlovchi Qarz oluvchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun mikroqarz berish majburiyatini, Qarz oluvchi esa olingan mikroqarz mablag'larini belgilangan muddatda qaytarish va mikroqarzdan foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.<br><br>**3. Mikroqarz ajratish tartibi** | **Договор публичной оферты на предоставления онлайн микрозайма.**<br><br>**Полная стоимость кредита:**<br>***согласно странице электронного одобрения***<br><br>**1. Общие условия.**<br>**1.1.** Согласно настоящему договору, Банк предлагает публичную оферту по выделению микрозайма в национальной валюте через мобильное приложения банка, физическим лицам, которые являются держателями банковских пластиковых карт (эмитированных Банком).<br>**1.2.** Условия, отраженные в настоящем соглашении-оферте, должны быть полностью изучены физическими лицами (в последующих местах – заемщиком). Условия данной публичной оферты являются обязательными для заемщика и банка после акцептирования заемщиком.<br>**1.3.** Данная публичная оферта считается акцептированной заемщиком только после выполнения всех необходимых действий для получения кредита с использованием реквизитов его банковской карты.<br>**1.4.** Ниже приведены акты публичной оферты считаются акцептируемыми заемщиком:<br>- принятие заемщиком условий соглашения в полном объеме;<br>- при возникновении конфликтов и недоразумений банк дает право полагаться на условия данной оферты;<br>- предоставляет возможность использовать оферту в качестве доказательства;<br>- условия данной оферты действуют с момента предоставления заемщику кредита через мобильное приложение банка.<br>Настоящая оферта и ее условия разработаны в соответствии со статьями 367, 369, 370 Гражданского кодекса.<br>**2.Предмет договора**<br>**2.1.** Банк, акцептирующий данную оферту, обязуется предоставить Заёмщику микрозайма на личные нужды, а Заёмщик обязуется своевременно погашать полученные средства микрозайма и оплатить проценты за пользование микрозаймом в установленный срок. |

**3.1.** Mikroqarz milliy valyutada kredit liniyasi ochmagan holda, Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan faqat Bank tomonidan emissiya qilingan (ochilgan) Bank kartasiga (maxsus hisobvarag'iga) naqdsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

**3.2.** Mikroqarz shartnoma akseptlangan vaqtning keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ajratiladi. Mobil ilova va mobil ilovaning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan ichki va tashqi ma'lumotlar bazasi hamda Bankning dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar ro'y bergan holatlar bundan mustasno. Bunda, Bank ro'y bergan texnik nosozliklar bartaraf etilgan bank ish kuni davomida nazarda tutilgan kredit liniyasini ochib berish majburiyatini oladi.

**3.3.** Mikroqarz muddati: 48 oygacha.

**3.4.** Asosiy qarzni qaytarish miqdorlari: 1 oylik imtiyozli davrdan so'ng, oyma-oy teng ulushlarda (differensial to'lov usulida).

**3.5.** Mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni to'lash muddati: har oyning 1 sanasi va kreditni ohirgi qaytarish sanasida.

**3.6.** Kredit ta'minoti: qarz oluvchi tomonidan kredit qaytarmaslik xavf xataridan sug'urta polisi

## 4. Mikroqarzni qaytarish va foizlarni to'lash tartibi

**4.1**. Kredit yillik foiz stavkasi Kredit muddatidan kelib chiqib quyidagi foizlarda o'rnatiladi:

1 yilgacha kreditlar - yillik 29%;

2 yilgacha kreditlar - yillik 30%;

3 yilgacha kreditlar - yillik 31%;

4 yilgacha kreditlar – yillik 32%.

**4.2.** Kreditdan foyladanganlik bo'yicha foizlar Bank tomonidan har kuni hisoblab boriladi. Bunda, oylik foiz to'lovi har oyning mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha aniqlanadi. Kredit bo'yicha foiz hisoblanishi bank ish kuni yakunida mavjud bo'lgan asosiy qarz qoldig'i bo'yicha hisoblanadi.

**4.3.** Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hioblangan foizlar hamda boshqa to'lovlar Bank kassasiga naqd pul yoki bank mobil ilovasi yohud boshqa to'lov vositalari orqali pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi shart.

**4.4.** Agar mikroqarz to'lovining sanasi bank ish kuni hisoblanmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

## 3.Условия кредитования

**3.1**. Микрозайм предоставляется без открытия кредитной линии в национальной валюте путём безналичного перевода денежных средств со ссудного счета Заёмщика на его банковскую карту (специальный счет), эмитированную (открытую) банком.

**3.2**. Микрозайм выделяется не позднее следующего рабочего дня с момента акцептирования данного договора. За исключением случаев непредвиденных технических сбоев в программном обеспечении банка, а также внутренних и внешних баз данных, связанных с работой мобильного приложения. Банк обязан открыть предусмотренную кредитную линию, в течение рабочего дня банка, в котором были исправлены технические неполадки.

**3.3**. Срок использования микрозайма: до 48 месяца.

**3.4**. Размеры погашения основного долга: после 1-месячного льготного периода, равными частями ежемесячно (дифференциальные платежи).

**3.5**. Срок погашения микрозайма и начисленных по нему процентов: ежемесячно 1 числа и на дату последнего погашения кредита.

**3.6.** Обеспечение кредита: страховой полис по страхованию риска невозврата кредита заёмщиком

## 4.Порядок возврата микрозайма и оплата процентов

**4.1**. Годовая процентная ставка исходя из срока кредита:

Кредиты до 1 года - 29% годовых;
Кредиты до 2 лет – 30% годовых;
Кредиты до 3 лет - 31% годовых;
Кредиты до 4 лет – 32% годовых.

**4.2.** Проценты по кредиту начисляются банком каждый день. При этом ежемесячная выплата процентов определяется количеством доступных дней в каждом месяце. Начисленные проценты по кредиту рассчитываются по остаткам основного долга, которые имеются в наличии на конец рабочего дня банка.

**4.3.** Основная сумма и проценты, начисленные по кредиту, а также другие платежи уплачиваются в кассу Банка наличными или банковским переводом или другими платежными

**4.5.** Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovlar quyidagi ketma ketliklarga muvofiq yo'naltiriladi:

a) muddatida to'lanmagan foiz va asosiy qarz bo'yicha hisoblangan penya hamda yuqori foizlar;

b) muddatida to'lanmagan foizlar;

v) asosiy qarz bo'yicha muddati kelgan to'lovlar;

g) mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashga.

**4.6.**Mazkur Shartnoma bo'yicha Bank o'z talablarini qanoatlantirishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Qarz oluvchining barcha hisobvarag'larida (ya'ni, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank kartasi hamda boshqa hisobvarag'larida) turgan pul mablag'larini to'lov talabnomasi yoki memorial order orqali so'zsiz tartibda Qarz oluvchining roziligisiz avtoto'lov tizimidan foydalangan holda kredit qarzdorligini qoplashga haqli.

**5. Taraflarning huquq va majburiyatlari**

**5.1. Bank majburiyatlari:**

**5.1.1**. Qarz oluvchiga ssuda va boshqa lozim bo'lgan hisobvaraqlar ochish;

**5.1.2**. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar va miqdorda pul mablag'laridan foydalanish uchun mikroqarz taqdim etish;

**5.1.3**. Qarz oluvchining bankdagi maxsus karta hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini uning vujudga kelgan qarzdorligini qoplash uchun yo'naltirish;

**5.1.4**. Qarz oluvchini kredit va unga hisoblangan foizlar bo'yicha vujudga kelgan muddati o'tgan qarzdorlik to'g'risida mobil ilova va sms xabarnoma orqali shuningdek, yozma yoki og'zaki tartibda xabardor etish.

**5.2. Bank huquqlari:**

**5.2.1.** Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarish, shartnomani bekor qilish hamda kredit bo'yicha barcha qarzdorliklarni bartaraf etish haqida talab qo'yishi mumkin:

kredit bo'yicha hisoblangan asosiy qarz va (yoki) foizlarning to'lov muddati buzilishi;

qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;

qarz oluvchining hisobvarag'idagi pul mablag'lariga (shuningdek bankda ochilgan) taqiq qo'yilgan bo'lsa;

средствами. Платежи по кредиту должны производиться заемщиком своевременно.

**4.4**. Если дата оплаты микрозайма является не рабочим днем банка, то оплата переносится на следующий рабочий день Банка.

**4.5**. Все выплаты по настоящему договору будут осуществляться в следующих последовательностях:

а) пеня и повышенные проценты, начисленные по просроченному основному долгу и процентам;

б) невыплаченные проценты в срок;

в) оплата по сроку гашения по основному долгу;

г) оплата начисленные проценты по микрозайму.

**4.6**. Согласно статье 783 Гражданского кодекса, денежные средства, находящиеся на карточном счете заемщика (банковские карты, привязанные к счету заемщика в мобильном приложении в процессе получения кредита, а также в дальнейшем другие банковские карты), необходимые банку для удовлетворения своих требований по настоящему Договору, могут быть в безусловном порядке списаны через платежное требование или мемориальный ордер с использованием системы автопогашения без согласия заемщика.

**5.Права и обязательства сторон**

**5.1. Банк обязуется:**

**5.1.1**. Открытие ссуды и других необходимых счетов Заёмщику;

**5.1.2**. Предоставление микрозайма для использования денежных средств на условиях и в размере, указанного в настоящем договоре;

**5.1.3**. Направление поступающих денежных средств, на специальный счет карты заёмщика в банке, для погашения задолженности;

**5.1.4**. Информировать заемщика в письменном или устном порядке, а также посредством мобильного приложения и SMS-уведомления о просроченной задолженности, возникающей по кредиту, и начисленных по нему процентах.

**5.2. Права банка:**

**5.2.1**. В следующих случаях Должнику может быть предъявлено требование о досрочном погашение микрозайма и начисленных процентов, а также расторжении

| | |
|---|---|
| qarz oluvchining kreditni qoplash uchun istiqboli mavjud bo'lmasa;<br>qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini o'z muddatida bajarilishiga tahdid soluvchi asos va boshqa hodisalar sodir bo'lib, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda;<br>**5.2.2.** Qarz oluvchining maxsus karta hisobvarag'i va boshqa hisobvarag'lari bo'yicha amaliyotlarni nazorat va monitoringini mustaqil tarzda amalga oshirish (shuningdek, hisobidagi kirim-chiqim pul aylanmalari holati);<br>**5.2.3.** Kreditga ariza berish davomida qarz oluvchining mobil ilovadagi shaxsiy sahifasiga bog'langan barcha kartalar va keyinchalik bankka ma'lum bo'lgan Bank filiallarida va boshqa tijorat banklarida ochilgan qarz oluvchining shaxsiy kartalarini avto to'lov xizmatiga bog'lash va muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda mazkur kartalardan qarzdorlikni akseptsiz undirish;<br>**5.2.4.** Kredit olish jarayonida texnik nosozliklar sababli qarz oluvchi kartasiga ortiqcha pul mablag'lari tushirib berilishi oqibatida yuzaga kelgan qarzdorlikni undirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish;<br>**5.2.5.** Kredit bo'yicha barcha qarzdorliklar qaytarilishida o'zining huquq va manfaati himoyasi uchun yetarli va zarur bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ofertadagi qaytarishning barcha choralarni ko'rish. Qaytarish bilan bog'liq barcha harajatlar Qarz oluvchi tomonidan qoplanadi;<br>**5.2.6.** Kreditning asosiy qarzi va unga hioblangan foiz to'lovlari o'z muddatida to'lanmagan taqdirda, undiruvni kreditning ta'minotiga yoki Qarz oluvchining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank plastik kartasi hamda boshqa hisobvarag'larida turgan pul mablag'lariga qaratish orqali undirish.<br><br>**5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:**<br>**5.3.1.** Kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni belgilangan muddatda va miqdorda to'lash, ish haqi yoki unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish, zarur hollarda, naqd pul mablag'larini Bank kassasiga topshirish yo'li bilan to'lovlarni amalga oshirish;<br>**5.3.2.** Kredit va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida va to'liq qoplanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha holatlar haqida bankni o'z vaqtida xabardor etish;<br>**5.3.3.** Bank dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar sababli qarz oluvchining bank kartasiga noto'g'ri kelib tushgan pul mablag'lari | договора и погашении всех задолженностей по микрозайму:<br>Нарушение сроков погашения основного долга и (или) процентов, начисленных по микрозайму;<br>Ухудшение финансового состояния должника;<br>При наличии запрета на денежные средства (также открытые в банке) на счете должника;<br>Если у должника нет перспектив покрыть микрозайм;<br>Основания и иные обстоятельства, угрожающие своевременному исполнению должником условий договора, в случае невыполнения им своих обязательств по договору;<br>**5.2.2.** Самостоятельно осуществлять контроль и мониторинг операций по специальному карточному счету и другим счетам заемщика (а также состояние оборота зачисленного счета);<br>**5.2.3.** Во время подачи заявки на кредит все карты, привязанные к личной странице заемщика в мобильном приложении, а затем открытые в отделениях банка и других коммерческих банках, подключают личные карты заемщика к сервису автоплатежей, а в случае просроченной задолженности взыскивают долги с этих карт без акцепта;<br>**5.2.4.** Принять необходимые меры по взысканию задолженности, возникшей в результате перечисления лишних денежных средств на карту заемщика из-за технических сбоев в кредитном процессе;<br>**5.2.5.** При погашении всех долгов по кредиту для защиты своих прав и интересов принять все необходимые меры согласно действующему законодательству Республики Узбекистан и соглашению оферты. Все расходы, связанные с погашением кредита, покрываются заемщиком;<br>**5.2.6.** В случае несвоевременного погашения основного долга и процентов по нему, взыскание производится путем обращения на обеспечение кредита или на заработную плату и приравненных к ним платежей, а также денежных средств, находящихся на банковской пластиковой карте и других расчетных счетах Заемщика.<br><br>**5.3. Заёмщик обязуется:** |

| | |
|---|---|
| yuzasidan Bankni xar qanday aloqa vositalari orqali xabardor qilish va mazkur mablag'lardan foydalanmaslik, qaytarish masalasi bo'yicha barcha choralarni ko'rish, shuningdek qarzdorlik bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar noto'g'ri ekanligi aniqlanganda bankni zudlik bilan xabardor etish;<br>**5.3.4.** Yashash manzili va ish joyi o'zgarganligi haqida, Bankni besh ish kunidan kechiktirmagan holda yozma tartibda ogohlantirish;<br>**5.3.5.** Qarz oluvchi bilan Bank o'rtasida aloqa vositasi bo'lgan, ya'ni qarz oluvchi bilan bog'lanish imkonini beruvchi ma'lumotlar (telefon raqam va boshqalar)ning o'zgarganligi haqida, Bankni uch kunlik muddatda yozma tartibda ogohlantirish;<br>**5.3.6.** Qarz oluvchi Bankka noto'g'ri ma'lumotlar berilishi sababli kelib chiqadigan holatlar uchun javobgar;<br>**5.3.7.** Kredit bo'yicha qarzdorlik doirasida o'z majburiyatlari yuzasidan Bank oldida barcha mol-mulki bilan javob berish;<br>**5.3.8.** Login, parol va maxfiy so'zni oshkor qilmaslik, shuningdek tizimga kirish uchun SMS xabarnoma orqali yuborilgan tasdiqlov kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik, bunday holatlar kuzatilsa Bank ushbu holat yuzasidan kelib chiqqan moddiy va manaviy zararlar uchun javobgar emas;<br>**5.3.9.** Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:<br>a) qarzdorlik muammoga aylanganda va o'z muddatida to'lanmaganda, uning so'ndirilishi yuzasidan amaliy yordam so'rab, Qarz oluvchining ish joyi, yashash joyidagi MFY va yaqin qarindoshlariga Bank tomonidan yozma murojaat qilinishiga o'z roziligini beradi hamda bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;<br>b) kredit to'lovi muddati o'tkazib yuborilgan qarz oluvchilik yuzaga kelganligi haqida SMS xabar junatilishi va telefon orqali qo'ng'iroqlar amalga oshirilishiga qarshi emas;<br>v) qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda qarz oluvchining shaxsiy va kredit qarzdorligi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kredit ta'minoti sifatida kredit qaytmaslik xavf xataridan sug'urta polisini taqdim etgan sug'urta kompaniyasi taqdim etilishiga o'z roziligini beradi va bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;<br>g) Kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Kredit axborotining davlat reestri va kredit byurosiga taqdim etilishiga/olinishiga o'z roziligini beradi, bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi. | **5.3.1**. Осуществление погашения основного долга и процентов по микрозайму в установленном в размере и в срок, а также перечисление заработной платы или приравненных к ней платежей, в отдельных случаях в виде наличных средств в кассу банка.<br>**5.3.2.** Своевременно информировать банк обо всех случаях, которые могут повлиять на своевременное и полное покрытие микрозайма и начисленных процентов.<br>**5.3.3**. При неправильном (ошибочном) зачислении денежных средств на пластиковую карту заёмщика в связи с непредвиденными техническими сбоями в банковском программном обеспечении, необходимо любыми средствами связи сообщить банку, не использовать ошибочно поступившие денежные средства, принять все меры по скорейшему возвращению этих средств, а также немедленно сообщить банку, если проценты, начисляемые по займу, неверны;<br>**5.3.4.** Письменное уведомление об изменении адреса проживания и места работы не позднее пяти рабочих дней банка;<br>**5.3.5**. Уведомление банка в письменной форме в трехдневный срок об изменении данных (номер телефона и др.), которые являются средством связи между должником и банком, то есть позволяют связываться с должником.<br>**5.3.6**. Заёмщик несет ответственность за случаи, вытекающие из-за неверной информации предоставленной Банку.<br>**5.3.7.** В рамках задолженности по кредиту отвечать перед Банком всем имуществом, исходя из своих обязательств;<br>**5.3.8.** Не разглашать Логин, Пароль и Секретное слово, также не отдавать третьим лицам подтверждающие коды для входа в систему отправленные через СМС информирование, при наблюдении такой ситуации Банк не несет ответственности за причиненный данной ситуацией материальный и моральный ущерб;<br>**5.3.9**. Заёмщик подтверждает и гарантирует следующее:<br>а) В случае, когда долг не будет выплачиваться вовремя, Заёмщик дает своё согласие на то, что Банк может обратиться за практической помощью в письменной форме по месту работы, по месту жительства и близким родственникам в погашении кредитной |

| | |
|---|---|
| **5.4. Qarz oluvchining huquqlari:**<br>**5.4.1.** Kredit mablag'lari ajratilguniga qadar, kredit olishdan bepul asosda voz kechish;<br>**5.4.2.** Kreditni muddatidan oldin qaytarish;<br>**5.4.3**. Kredit qarzdorliklari bo'yicha Bankdan ma'lumotlar olish;<br>**5.4.4.** Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Republikasining normativ-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish.<br>**5.5. Sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish buyicha shartlar**<br>**5.5.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlarning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblariga amal qilishini, ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi xamda tasdiqlaydi.<br>**5.5.2.** Qarz oluvchi uchun hisobvaraq ochishdan oldin Bank tavakkalchilikni (shu jumladan sanksiyalar xavfi) aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni va hujjatlarni so'rashga xaqli. So'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bank omonatchiga hisobvaraq ochishda rad etishga haqli<br>**5.5.3.** Qarz oluvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo'lganda, Bank - operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni hamda zarur bo'lgan hujjatlarni olish (so'rash), operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash, rad etish, shuningdek mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.<br>**5.5.4.** Bank – Qarz oluvchi va uning Kontragenti hamda u bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qanday zarur ma'lumot yoki hujjatlarni *(kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro'yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, mahsulot to'g'risida, jo'natish hujjatlari, mahsulotning spetsifikatsiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va b.)* sanksiyalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida Qarz oluvchidan talab qilishga, Qarz oluvchi tomonidan barcha zarur hujjat/ma'lumotlar taqdim qilinmagan xollarda, Qarz oluvchiga xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega;<br>**5.5.5.** Bank har qanday sanksiya va embargolar bilan bog'liq xatarlar oqibatida Qarz oluvchining topshirig'iga asosan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larining qaytarilishi, bloklanishi, | задолженности заёмщика, и это не считается раскрытием банковской тайны;<br>б) не возражает против отправки SMS-уведомлений и телефонных звонков о возникновении просроченной задолженности;<br>в) в случае, выявления задолженности, заемщик дает свое согласие на предоставление страховой компании, предоставившей страховой полис от риска невозврата кредита, информации о личном и кредитном заимствовании в качестве кредитной гарантии, и эта ситуация не рассматривается как раскрытие банковской тайны;<br>г) Заемщик дает согласие на предоставление/получение информации, необходимой для формирования кредитной истории, в Государственный реестр кредитной информации и бюро кредитных историй, что не считается разглашением банковской тайны.<br>**5.4**. **Права заёмщика:**<br>**5.4.1**. Отказаться от получения кредита на бесплатной основе до получения денежных средств;<br>**5.4.2.** Досрочно погасить задолженность по выданному кредиту;<br>**5.4.3.** Получать информацию от Банка по кредитной задолженности.<br>**5.4.4.**Получать информацию от Банка об изменениях в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан и внутренних нормативных документах Банка по вопросам кредитования и о расчетах.<br>**5.5. Условия по управлению санкционными рисками**<br>**5.5.1.** Выполняя свои обязательства по настоящему соглашению, каждая из сторон признает и подтверждает, что в своей деятельности будет следовать и поддерживать политику и процедуры, направленные на соблюдение международного законодательства об экономических и финансовых санкциях;<br>**5.5.2.** До открытия счёта клиенту Банк имеет право запросить всю необходимую информацию, а также документацию необходимую для определения рисков, в том числе риска применения санкций. В случае непредоставления или не предоставления в полном объёме затребованной информации банк имеет право за собой отказать заемщику в открытии счёта |

muzlatilishi, yo'qolishi yoki shu kabi boshqa xolatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, xar har qanday sanksiyalar ta'siri sababli Qarz oluvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

**6. Taraflar javobgarligi**

**6.1.** Bank quyidagi hollarda qarz oluvchining nomidan Bankning mobil ilovasi orqali olingan pul mablag'lari uchun javobgar bo'lmaydi, jumladan:

- qarz oluvchining yaqinlari va qarindoshlari hamda uchinchi shaxslarga mobil ilovada qarz oluvchining shaxsiy sahifasiga qarz oluvchining shaxsan o'zi kirish va undan foydalanish imkoniyatini bergan taqdirda;
- qarz oluvchining PIN (PIN) kodlari va parollari, mobil ilova va qarz oluvchining kartalari bo'yicha kelgan sms xabarnomadagi kodlarning qarz oluvchining aybi bilan boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi natijasida;
- Bankka Qarz oluvchi nomidan noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etilishi natijasida.

**6.2.** Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

6.3. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzdor Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4%i miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 %idan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Bank tomonidan kredit mablag'ini ajratish kechiktirilganida, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

**7. Nizolarni hal etish tartibi**

**7.1.** Tomonlar ushbu oferta yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Agarda ko'rsatib o'tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Bank xizmatlari ofisi (BXO), Bank xizmatlari markazi (BXM) joylashgan joydagi sudda hal etiladi

**5.5.3.** В случае если заемщик либо его сделка попадает под действие санкций, либо имеется риск попадания под действия санкций, для определения такого риска Банк имеет право запросить дополнительную информацию, а также необходимую документацию касательно сделки, также ограничить сумму сделки, ограничить или отказаться от сделки, и имеет право в одностороннем порядке расторгнуть договор;

**5.5.4.** Банк вправе потребовать от заемщика любую необходимую информацию или документы, касающиеся заемщика и его контрагента исходя из заключенного с ним договора *(сведения о контрагенте, его полные реквизиты, список его аффилированных лиц, состав акционеров/учредителей, исполнительный орган, должностные лица, сотрудники, сведение о продукте, товаросопроводительные документы, спецификацию товара, информацию о перевозчике и др.)* с целью определения, находится ли контрагент в санкционном списке или нет, и вправе отказать в обслуживании заемщика в случаях, когда необходимые документы/информация заемщиком не предоставлена;

**5.5.5.** Банк не несет ответственности за возврат, блокировку, замораживание, утерю или иные подобного рода действия денежных средств в результате каких-либо санкций и эмбарго при проведении платежей, совершенных по поручению Заемщика. Также Банк не несет ответственности за ущерб, причиненный Заемщику вследствие воздействия каких-либо санкций.

**6. Ответственность сторон**

**6.1.** Банк не несет ответственности за денежные средства, полученные от Заемщика через мобильное приложение банка, в том числе:

- в случае, если заемщик предоставляет родственникам и близким, а также третьим лицам возможность доступа и использования личной страницы заемщика в мобильном приложении;
- в результате того, что ПИН (PIN) коды и пароли заемщика, мобильного приложения и коды во входящем SMS-уведомлении по картам заемщика становятся известны другим лицам по вине заемщика;

Nizolar vujudga kelgan taqdirda, Bank yozuvlari, ko'chirmalar har ikki tomon uchun mazkur oferta bo'yicha majburiyatlar isbotining dalili bo'lib hisoblanadi.

**8. Ofertaning amal qilish muddati**

**8.1.** Mazkur oferta akseptlangandan so'ng kuchga kiradi, Qarz oluvchi tomonidan ushbu oferta bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar amalda bo'ladi.

**8.2**. Mazkur shartnoma muddatidan oldin, shartnomada ko'zda tutilgan hollarga asosan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

**8.3.** Mazkur shartnoma tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor bo'lganda, Qarz oluvchi Kredit bo'yicha barcha qarzdorliklarni Bankka to'lashi shart.

**9. Boshqa shartlar**

**9.1.** Kredit mobil ilova orqali 24/7 rejimida ajratiladi.

**9.2.** Qarz oluvchi, o'ziga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan axborotlarni/ ma'lumotlarni Bank tomonidan uchinchi shaxslarga berilishiga yoki ulardan foydalanishiga o'z roziligini beradi.

**9.3.** Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo'lishiga asos bo'lmaydi.

**9.4.** Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa holatlar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etadilar.

- в результате предоставления банку неверной информации от имени заемщика.

**6.2.** В случае просрочки погашения основного долга Заемщик уплачивает Банку повышенную процентную ставку за весь период просрочки в размере, превышающем процентную ставку, указанную в договоре, в 1,5 раза.

6.3. При неуплате процентов в указанный срок и образовании по ним просроченных сумм, Заёмщик уплачивает Банку пеню в размере 0,4 % за каждый день просрочки платежа, но не более 50 % от просроченного платежа».

6.4. При задержке выделения Банком кредитных средств Банк уплачивает Заемщику пеню в размере 0,4% от суммы просроченного платежа за каждый день просрочки, но не более 50% от суммы просроченного платежа.

**7. Порядок разрешения споров**

**7.1**. Стороны будут стремиться разрешить все споры и разногласия, которые могут возникнуть по настоящему договору, путём переговоров. В случае невозможности разрешения споров путем переговоров, такие споры и разногласия подлежат разрешению в суде по местонахождению Офиса банковских услуг (ОБУ), Центра банковских услуг (ЦБУ) в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

В случае возникновения споров, банковские записи, выписки являются доказательством обязательств по настоящему Договору для обеих сторон.

**8. Срок действия договора**

**8.1**. Настоящий Договор вступает в силу с момента акцепта и остается в силе до тех пор, пока Заемщик не выполнит полностью обязательства согласно договору;

**8.2**. Настоящий договор может быть расторгнут досрочно, в одностороннем порядке, исходя из случаев, предусмотренных договором.

**8.3**. При прекращении по инициативе одной из сторон настоящего Договора должник должен оплатить банку все долги по микрозайму

**9. Прочие условия**

**9.1**. Кредит предосталяется 24/7 через мобильное приложение.

**9.2**. Заемщик дает свое согласие на за фиксирование на электронном, бумажном и (или)

| | |
|---|---|
| | ином материальном носителе информации, относящейся ему или дающую возможность его идентификации третьим лицам.<br>**9.3**. Если одно или несколько условий настоящего договора утрачивают силу в соответствии с законом или решением суда, это не является основанием прекращения других условий договора.<br>**9.4**. При других обстоятельствах, не предусмотренных настоящим договором, стороны будут рарешать споры в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан. |
| **Yuridik manzil:**<br>**“O’zsanoatqurilishbank” ATB**<br>Manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Shaxrisabz ko’chasi, 3 uy.<br>MFO: 00440; STIR: 200 833 707<br>Telefon: (99871) 200-43-43, 1180<br>Veb sahifa: www.sqb.uz | **Юридический адрес:**<br>**АКБ «Узпромстройбанк»**<br>Адрес: г. Ташкент, Юнусададский район, ул. Шахрисабз, дом 3<br>МФО: 00440; ИНН: 200 833 707<br>Телефон: (99871) 200-43-43, 1180<br>Веб адрес: www.sqb.uz |

*Mijoz FIO pasport ma’lumotlari* *QR code*
*Mikroqarz turi, foizi, muddati*